O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY TA'LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI

SAMARQAND IQTISODIYOT VA SERVIS INSTITUTI

"TASDIQLAYMAN"
_______________
Samarqand iqtisodiyot va servis instituti
rektori M.E.Po'latov
«29» 09 2024 yil

Ro'yxatga olindi: № FD-11-01
2024 yil "29" 08

# BANK ISHI ASOSLARI FANINING O'QUV DASTURI

kechki ta'lim shakli uchun

| | |
|---|---|
| Bilim sohasi: | 400 000 - Biznes, boshqaruv va huquq |
| Ta'lim sohasi: | 410 000 - Biznes va boshqaruv |
| Ta'lim yo'nalishi: | 60410500 - Bank ishi va auditi |

Samarqand-2024

| Fan/modul kodi TAKR105 | O'quv yili 2024-2025 | Semestr 3 | ECTS - Kreditlar 5 |
|---|---|---|---|
| Fan/modul turi Majburiy | Ta'lim tili O'zbek/rus | | Xaftadagi dars soatlari 4 |
| 1. Fanning nomi | Auditoriya mashg'ulotlari (soat) | Mustaqil ta'lim (soat) | Jami yuklama (soat) |
| Bank ishi asoslari | 60 | 90 | 150 |

2

## I.Fanning mazmuni

Har bir jamiyatning kelajagi uning ajralmas qismi va hayotiy zarurati bo'lgan ta'lim tizimining qay darajada rivojlanganligi bilan belgilanadi. Bugungi kunda mustaqil taraqqiyot yo'lidan borayotgan mamlakatimizning uzluksiz ta'lim tizimini isloh qilish va takomillashtirish, yangi sifat bosqichiga ko'tarish, unga ilg'or pedagogik va axborot texnologiyalarini joriy qilish hamda ta'lim samaradorligini oshirish davlat siyosati darajasiga ko'tarildi. "Ta'lim to'g'risida"gi Qonun va "Kadrlar tayyorlash milliy dasturi"ning qabul qilinishi bilan uzluksiz ta'lim tizimi orqali zamonaviy kadrlar tayyorlashning asosi yaratildi. O'zbekiston Respublikasi demokratik, huquqiy va fuqarolik jamiyatini qurish yo'lidan borayotgan bir paytda ta'lim sohasida amalga oshirilayotgan islohotlarning bosh maqsadi va harakatga keltiruvchi kuchi har tomonlama rivojlangan barkamol insonni tarbiyalashdan iboratdir.

## II. O'quv fanining maqsadi va vazifasi

**Fanning maqsadi** – talabalarga bank sohasida faoliyat yurituvchi kadrlarga bo'lgan ijtimoiy-iqtisodiy talablardan kelib chiqqan xolda shakllanish borasida zimmalariga yuklangan vazifalarni yuqori darajada, nazariy va amaliy bilimlarni chuqur egallash, mustaqil o'qish va izlanishlar olib borish, jamoaviy ishlarda faol ishtirok etish, madaniy dam olish va xordiq chiqarish, kutubxonada ishlash, va ilk ilmiy izlanishlar olib borish, soxaning tarixiy va iqtisodiy rivojlanish davrlarini bilish hamda o'zini bo'lajak mutaxasis sifatida shakllanishga tayyorlashdan iborat.

**Fanning asosiy vazifalari** – "Ta'lim to'g'risida"gi Qonun va "Kadrlar tayyorlash milliy dasturi"ning qabul qilinishi bilan uzluksiz ta'lim tizimi orqali zamonaviy kadrlar tayyorlashning asosi yaratildi. O'zbekiston Respublikasi demokratik, huquqiy va fuqarolik jamiyatini qurish yo'lidan borayotgan bir paytda ta'lim sohasida amalga oshirilayotgan islohotlarning bosh maqsadi va harakatga keltiruvchi kuchi har tomonlama rivojlangan barkamol insonni tarbiyalashdan iboratdir.

## III. Asosiy nazariy qism (ma'ruza mashg'ulotlari)

Ma'ruza mashg'ulotlar uchun quyidagi mavzular tavsiya etiladi:

**1 – mavzu. Kirish. "Bank ishi asoslari" fani, predmeti, maqsadi va vazifalari.**

"Bank ishi asoslari" fani, predmeti, maqsadi va vazifalari. Ta'lim tizimini mustahkamlashga qaratilgan me'yoriy-huquqiy bazani takomillashtirish



bo'yicha amalga oshirilgan ishlar. «Bank ishi asoslari» fanini o'qitishning maqsadi va vazifalari. «Bank ishi asoslari» fanining o'rganish usullari.

**2 – mavzu. «Bank ishi va audit» mutaxassisligiga qo'yiladigan talablar.**

O'quv rejasining tarkibiy mazmuni. Ta'lim mazmuni va sifatini yanada takomillashtirish. Ta'lim dasturining tarkibi va mazmuni. Mustaqil ta'lim. (O'quv amaliyoti, ishlab chiqarish amaliyoti, diplom ishlari va davlat attestatsiyasi). O'quv jarayoni ta'minotining modeli va uning asosiy tarkibiy qismlari. O'qish jarayonining asosiy shakillari. Ma'ruza shaklida ta'lim berishning o'ziga xos xususiyatlari. Seminar mashg'ulotning o'ziga xos xususiyatlari. Mustaqil ta'lim.

**3 – mavzu. Bank ishi asoslari va uning rivojlanishi.**

Bank ishi asoslari fanining mazmuni. Ta'lim dasturining tarkibi va mazmuni. Bank ishi asoslari fanining rivojlanishi, banklarda ishchi xodimlar salohiyatini oshirish chora tadbirlari.

**4 – mavzu. Kasbiy bank etikasining nazariy va uslubiy asoslari.**

Kasbiy etika va etiket madaniyatining ta'rifi, mohiyati va vazifalari. Bank etikasi va etiketi. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi, O'zbekiston Respublikasi qonunchiligi, kasb odob–ahloqi me'yorlari va an'analarga so'zsiz rioya qilish. Banklar mijozlar bilan munosabatlarni o'rnatishdagi majburiyati va banklar o'z xodimlari oldida majburiyati.

**5 – mavzu. Bank mutaxassislarning kasbiy axloqi va madaniyati.**

Bank xodimining kasb odob-axloqi Kodeksi. Kasb odob-axloqi me'yorlari va an'analarga so'zsiz rioya kilish. Jamiyat va davlat oldidagi o'zining fuqarolik va professional burchlarini anglash, amaldagi qonunchilik me'yorlariga asoslangan davlat organlarining talablarini o'z vaqtida va to'liq bajarish. O'ziga olingan majburiyatlarga rioya qilish va yuqori saviyali va sifatli xizmat kursatilishini ta'minlash. O'zaro xurmat, xamfikrlik va o'zaro yordam berish asosida xalqaro professional aloqalarni o'rnatish va rivojlantirish; korporativ boshqaruv, shuningdek, bank xizmatlarini kursatishda xalollik yuzasidan ichki va o'zaro nazoratni o'rnatish. O'z ish faoliyatining sifati va natijalari buyicha javobgarlikning talaqonliligi.

**6 – mavzu. Bank xodimlarining tashqi ko'rinishi va uslubiga qo'yiladigan talablar.**

Bank xodimlarning kiyimi va ularning tashqi ko'rinishi. Bankda mexnat qilayotgan ayol xodimlarning kiyimi va ularning tashqi ko'rinishiga qo'yiladigan talablar. Bankda mehnat qilayotgan erkak xodimlarning kiyimi va ularning tashqi ko'rinishiga qo'yiladigan talablar. Bank xodimining kasb odob–axloqi kodeksida har bir bank xodimiga qo'yilgan qoidalar va talablar.

**7 – mavzu. Bank kodeksining mohiyati, bank xodimining kasbiy xulq atvori.**

Bank kodeksi O'zbekiston Respublikasi bank hamjamiyatida ish yuzasidan o'zaro hamkorlikni mustahkamlash va haqqoniy raqobat uchun sharoitlarni yaratish maqsadlarida ishlab chiqiladi. Kodeks banklarning barcha xodimlari rioya etadigan odob-ahloqning asosiy etik me'yorlarini belgilab beradi.

**8-mavzu. Banklar va ularning iqtisodiyotni rivojlantirishdagi o'rni.**

Banklarning paydo bo'lishi va ularning pul-tovar munosabatlarini rivojlantirishdagi o'rni. Bank tushunchasi. Bank bo'limlari (filiallari) va vakolatxonalari. Bank bo'limlari (filiallari) va vakolatxonalari. Banklarning kredit tizimidagi o'rni va asosiy vazifalari. Banklar tasnifi. Bank tizimi tushunchasi. O'zbekiston Respublikasi bank tizimi. O'zbekiston Respublikasi bank tizimini islox qilishning ustvor yo'nalishlari.

**9-mavzu. Bank faoliyatini amalga oshirishning normativ huquqiy asoslari.**

Banklar faoliyatini tartibga solish va ularni litsenziyalash jarayonlari tartibi, "Banklar va bank faoliyati to'g'risida"gi qonunni o'rganish, qonun bilan tanishib chiqish. Banklarga oid qonunlar va me'yoriy hujjatlar bilan tanishib chiqish.

**10-mavzu. Bank ishi bo'yicha kurs va malakaviy ishlarni yozishga qo'yiladigan talablar va tartibi.**

Kurs ishi va bitiruv malakaviy ishini yozish buyicha uslubiy kunikmalarni shakllantirish. Tanishuv amaliyoti. Ishlab chikarish amaliyoti. Bitiruv-oldi malakaviy amaliyot. Amaliyot davrida tegishli xujjatlarni yigish va xisobotni shakllantirish.

**IV. Amaliy mashg'ulotlar bo'yicha ko'rsatma va tavsiyalar**

Amaliy mashg'ulotlar uchun quyidagi mavzular tavsiya etiladi:

1. Kirish. "Bank ishi asoslari" fani, predmeti, maqsadi va vazifalari;
2. «Bank ishi va audit» mutaxassisligiga qo'yiladigan talablar;
3. Bank ishi asoslari va uning rivojlanishi;
4. Kasbiy bank etikasining nazariy va uslubiy asoslari;
5. Bank mutaxassislarning kasbiy axloqi va madaniyati;
6. Bank xodimlarining tashqi ko'rinishi va uslubiga qo'yiladigan talablar;
7. Bank kodeksining mohiyati, bank xodimining kasbiy xulq atvori;
8. Banklar va ularning iqtisodiyotni rivojlantirishdagi o'rni;
9. Bank faoliyatini amalga oshirishning normativ huquqiy asoslari;
10. Bank ishi bo'yicha kurs va malakaviy ishlarni yozishga qo'yiladigan talablar va tartibi.

**V. Mustaqil ta'lim va mustaqil ishlar**

Mustaqil ta'lim uchun tavsiya etiladigan topshiriqlar:

1. O'zbekiston Respublikasida kadrlar tayorlash, bank mutaxassislarni tayyorlash va qayta tayyorlash tizimi.
2. O'zbekiston Respublikasining "Ta'lim to'g'risidagi" qonuni va "Kadrlar tayyorlash milliy dasturi".
3. O'zbekiston Respublikasining bank mutaxassislarini tayyorlash, qayta tayyorlash va malakasini oshirish tizimi.
4. O'zbekiston Respublikasi banklari Uyushmasi (Assotsiatsiya)ning tashkil etilishi, uning asosiy maqsadlari va bank tizimini isloh qilishdagi o'rni
5. O'zbekiston Respublikasi pul tizimi va uning elementlari
6. Ta'lim tizimini mustahkamlashga qaratilgan me'yoriy-huquqiy bazani takomillashtirish
7. Pul islohotlari. Pul islohotlarini amalga oshirishning zarurligi.
8. Kreditning zarurligi, funksiyalari, turlari va shakllari
9. Kredit bo'yicha foiz stavkalar va ularga ta'sir qiluvchi omillar
10. Banklarning kelib chiqishi va bank tizimi
11. O'zbekiston Respublikasi bank tizimi va uning tarkibi
12. Markaziy bank va uning funksiyalari
13. Markaziy bankning mustaqilligi
14. Tijorat banklari va ularning funksiyalari
15. Tijorat banklarining operatsiyalari
16. Nobank moliya-kredit muassasalari
17. Bank inqirozlari. Bank inqirozi tushunchasi.
18. Pulning xalqaro munosabatlardagi harakati
19. Xalqaro moliya institutlari, ularning maqsadi va funksiyalari
20. O'zbekiston Respublikasi bank tizimi va boshqa kredit muassasalari
21. Tijorat banklarini tashkil etishning huquqiy va iqtisodiy asoslari
22. Ta'lim dasturining tarkibi va mazmuni.

**VI. Fan o'zlashtirilishining natijalari (shakllanadigai kompetensiyalar)**

**Talaba fanni o'zlashtirish natijasida:**

- O'zbekiston Respublikasida kadrlar tayyorlash, bank mutaxassislarni tayyorlash va qayta tayyorlash tizimi to'g'risida bilimga ega bo'lishlari kerak;
- «Bank ishi va audit» mutaxassislarini tayyorlash jarayonini bilishlari lozim;
- O'quvchilarning mustaqil ishlarini tashkil etish to'g'risida bilimga ega bo'lishlari kerak;
- Banklar va ularning iqtisodiyotni rivojlantirishdagi o'rni haqida bilishlari kerak;
- xorijiy banklarning iqtisodiy mohiyati va iqtisodiyotni kredit bilan ta'minlash zarurligini; bank faoliyatiga ta'sir etuvchi omillarni aniqlay oladi;
- «Bank ishi va audit» mutaxassislarini tayyorlash jarayonini biladi;
- Bank resurslarining moliyalashtirish manbalariga; bank faoliyatiga samaradorligiga baho bera oladi;
- Banklar tomonidan mijozlarni moliyalashtirishda har bir mijozga qanday yondashish keraklini farqlay oladi.

**VI. Ta'lim texnologiyalari va metodlari:**

- ma'ruzalar;
- amaliy ishlarni bajarish va xulosalash;
- interfaol keys-stadilar;
- blits-so'rov;
- guruhlarda ishlash;

• taqdimotlar namoyishi;
• jamoa bo'lib ishlash va himoya qilish uchun loyihalar.

**VII. Kreditlarni olish uchun talablar:**

Fanga oid nazariy va uslubiy tushunchalarni to'la o'zlashtirish, tahlil natijalarini to'g'ri aks ettira olish, o'rganilayotgan jarayonlar xaqida mustaqil mushohada yuritish va joriy, oraliq nazorat shakllarida berilgan vazifa va topshiriqlarni bajarish, yakuniy nazorat bo'yicha yozma ish yoki testni topshirish.

**Asosiy adabiyotlar:**

1. O'zbekiston Respublikasining "Ta`lim to`g`risidagi" qonuni 29 avgust 1997 yil.
2. O'zbekiston Respublikasining "Kadrlar tayyorlash milliy dasturi" 29 avgust 1997 yil.
3. O'zbekiston Respublikasining "Markaziy banki to'g'risida"gi qonuni 11 noyabr 2019 y.
4. O'zbekiston Respublikasining "Banklar va bank faoliyati to'g'risida"gi qonuni 05 noyabr 2019 y.
5. Abdullayeva Sh.Z. "Bank ishi" o'quv qo'llanma -T.: "Iqtisod-Moliya" 2019 y. – 628 b.
6. Omonov A.A., Qoraliyev T.M., "Pul va Banklar" darslik. -T.: "Iqtisod-Moliya" 2019 y. 461 b.

**Qo'shimcha adabiyotlar:**

1. Omonov A.A., Qoraliyev T.M. "Pul, kredit va banklar" Darslik. -T.: IQTISOD-MOLIYA-2012 y. – 288 b.
2. Tog'ayev S.S "Bank ishi" Uslubiy qo'llanma. SamISI. Samarqand 2016 y 305 b.

Fan dasturi Samarqand iqtisodiyot va servis instituti O`quv uslubiy kengashining 2024-yil 29 avgustdagi 1-sonli yig`ilish bayoni bilan tasdiqlangan. (№ FD-1401

**Fan/modul uchun mas'ullar:** Karimova A.M. - "Bank ishi" kafedrasi mudiri i.f.d.,dotsent
Abduraxmanov A.S. – "Bank ishi" kafedrasi assistenti.

**Taqrizchilar:**
Xaydarov Z.Sh. "Ipak yo'li" AITB "Umar" mintaqaviy filiali boshqaruvchisi o'rinbosari;
Niyozov Z.D. Sam ISI, "Bank ishi" kafedrasi dotsenti.